SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПОЧКИ	1210
Солиев Абдумаджид Джабборович	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIVAVIY HIMOLA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1220
G'aniyeva Nozima Alijon qizi	
ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. Djabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIYIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каюмов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI	1296
Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	



YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIVAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	
HUDUDIIY TURIZM RIVOJLANISHIDA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	1336
Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH	1343
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILIYATLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KORXONA SALOHİYATINI YUKSALTIRISH YO'LLARI	1348
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN XARAJATLAR TAHLILI: ISHLAB CHIQARISH VA LOGISTIKA XARAJATLARINING MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIRI	1353
Zokirjonov Asadbek Otabek o'g'li, Xashimova Zuhraxon Kahramonovna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNI EKONOMETRIK MODELAR YORDAMIDA BAHOLASH	1358
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR TA'MINOTIGA OTA-ONALAR TOMONIDAN HAQ TO'LASH VA UNDAN FOYDALANISH TARTIBINING BUXGALTERIYA HISOBI	1361
Ro'ziboyev Oybek Baxromovich	
KICHIK BIZNESNING HUDUDIIY ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRI	1367
Qulmatov Alimjan Abdulloyevich	
INDUSTRIYA 4.0 SHAROITIDA KASBLAR TARKIBI TUZILMASI VA KOMPETENSIYALAR TRANSFORMATSIYASI	1371
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA (E-ID) TIZIMINING G'AZNACHILIK OPERATSIYALARIDA QO'LLANISH ISTIQBOLLARI	1375
Raximov Shaxzod Maxsudjanovich	
IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARINING INVESTITION FAOLIYATINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH	1380
Kasimova Nozima Omilovna	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE EFFECTIVE PERFORMANCE OF AN INDUSTRIAL ENTERPRISE IN THE CONTEXT OF INDUSTRY 4.0	1384
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
TEACHING PROGRAMMING COLLABORATIVELY THROUGH GOOGLE COLAB AND GITHUB INTEGRATION	1388
Saidova Difuza Ergashovna	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1392
Djumayev Zayniddin Axmedovich	



ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА И КЛЮЧЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ	1397
Киличева Феруза Бешимовна	
ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ НОРМ О СОБСТВЕННОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СВОБОДЕ В УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА	1401
Абдуллаева Мавлюда Садыковна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INNOVATSION IQTISODIYOTDA QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI.....	1407
Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH	1414
Yoqubjonova Dildora Timur qizi	
TURISTIK XIZMATLAR BOZORINING XUSUSIYATLARI VA BRENDLASH IMKONIYATLARI	1420
Yusupova Moxinur Farxod qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY AKTIVLARNI BOSHQARISH.....	1428
Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li	
SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI.....	1432
Kodirov Aqliddin Hakim o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARINING QO'LLANILISHI	1437
Adamboyev Abror Akrom o'g'li, Akramov T.A.	
CHARM-POYABZAL KORXONALARIDA RESURSLARDAN MUQOBIL FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH	1443
Otaniyozov Orifjon Otaxonovich	
BANK KAPITALI YETARLILIGI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	1449
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
SIRKULYAR IQTISODIYOTDA RESURS TANQISLIGINING OLDINI OLIH MASALALARI	1454
Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi	
THE IMPACT OF DIGITAL PAYMENT SYSTEMS DEVELOPMENT ON THE BANKING SECTOR: A COMPARATIVE ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES	1459
Aziza Farmonovna Ergasheva, Rustam Olimjonovich Oltinov	
ICHKI AUDIT VA UNING KORXONA NAZORAT TIZIMIDAGI O'RNI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1472
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RISK TURLARI VA KELIB CHIQISH OMILLARI	1477
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	



QISHLOQ XO'JALIGIDA RISK TURLARI VA KELIB CHIQISH OMILLARI



Xamrokulov Sindor Qahramonovich
“Sharq” universiteti o'qituvchisi, Navoiy shahri

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo'jaligidagi risklarning asosiy turlari, ularning kelib chiqish omillari va agrar ishlab chiqarishga ta'siri tahlil qilingan. Tabiiy-iqlimiy, moliyaviy, bozor va texnologik risklarning o'zaro bog'liqligi ilmiy asosda yoritilib, hosildorlikning o'zgaruvchanligi tahliliy model asosida baholangan. Tadqiqot natijalari agrar tavakkalchilikni kamaytirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun kompleks yondashuvni qo'llash zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi risklari, tabiiy-iqlimiy xavflar, bozor risklari, moliyaviy tavakkalchilik, hosildorlikning o'zgaruvchanligi, suv tanqisligi, risklarni boshqarish, tavakkalchilikni kamaytirish, agrar barqarorlik.

Abstract. This article analyzes the main types of agricultural risks, their underlying causes, and their impact on production stability. It highlights the interconnection of natural-climatic, financial, market, and technological risks and assesses yield variability using an analytical model. The study demonstrates the necessity of an integrated approach to risk mitigation and enhancement of agricultural resilience.

Key words: agricultural risks, natural-climatic hazards, market risks, financial vulnerability, yield variability, water scarcity, risk management, risk mitigation, agricultural sustainability.

Аннотация. В статье рассматриваются основные виды рисков в сельском хозяйстве, причины их возникновения и влияние на устойчивость производства. Научно обосновано взаимное влияние природно-климатических, финансовых, рыночных и технологических рисков, а также оценена изменчивость урожайности на основе аналитической модели. Результаты исследования подтверждают важность комплексного подхода к снижению аграрных рисков и укреплению устойчивости отрасли.

Ключевые слова: риски в сельском хозяйстве, природно-климатические угрозы, рыночные риски, финансовая уязвимость, изменчивость урожайности, дефицит водных ресурсов, управление рисками, снижение рисков, устойчивость аграрного сектора.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholining bandligini oshirish va eksport salohiyatini mustahkamlashda bevosita ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, agrar soha o'z tabiatiga ko'ra turli xavf omillariga ega bo'lib, risklarning mavjudligi ishlab chiqarish samaradorligi, korxonalarning moliyaviy barqarorligi, investitsiya jalb etish imkoniyatlari hamda bozor raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatadi.

Jahon miqyosida BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Jahon banki hamda BMTning Taraqqiyot dasturi (UNDP) tomonidan qishloq xo'jaligi risklari global miqyosda muntazam o'rganilmoqda. O'zbekistonning agrar sektori ushbu omillarga sezgir bo'lib, ayniqsa iqlim o'zgarishi, suv resurslarining qisqarishi, bozor narxlaridagi tebranishlar hamda moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi bilan bog'liq xavflar ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu holatlar agrar rivojlanish strategiyalarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.



Mazkur ilmiy maqolada qishloq xo'jaligidagi risklarning turlari, ularning kelib chiqish omillari, klassifikatsiyasi hamda mavjud nazariy-uslubiy yondashuvlar tizimli ravishda tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari agrar boshqaruv, risk menejmenti, bank-moliya instrumentlaridan foydalanish va davlat siyosatini takomillashtirish uchun nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligida risklarni o'rganishga bag'ishlangan xalqaro, MDH mamlakatlari hamda O'zbekiston olimlarining ilmiy izlanishlari shuni ko'rsatadiki, agrar sohaning tabiiy-iqlimiy sharoitga yuqori darajada bog'liqligi, bozor infratuzilmasining izchil rivojlanishi, institutsional islohotlarning mazmun va sur'ati kabi omillar ushbu tarmoqni iqtisodiyotning strategik ahamiyatga ega bo'lgan, diversifikatsiyaga ehtiyoj sezuvchi sohalaridan biriga aylantirmoqda. Xorijiy adabiyotlarda qishloq xo'jaligi risklarini aniqlash, ularni tasniflash, kelib chiqish omillarini aniqlash va risklarni boshqarish mexanizmlari bo'yicha keng qamrovli ilmiy yondashuvlar shakllangan.

Xalqaro adabiyotlarda Kahan tomonidan FAO nashrida chop etilgan "Managing Risk in Farming" qo'llanmasida qishloq xo'jaligidagi risklar ishlab chiqarish, bozor, moliyaviy, institutsional va shaxsiy risklar sifatida tasniflanadi. Unda risklarning asosiy manbalari sifatida ob-havo noaniqligi, narx tebranishlari, kredit yukining ortishi va agrar siyosatdagi o'zgarishlar ko'rsatib o'tiladi [1]. Hardaker va hammualliflarining "Coping with Risk in Agriculture" asarida esa noaniqlikning iqtisodiy mazmuni, xavfning ehtimollik va kutilayotgan natija bilan bog'liqligi ilmiy asoslangan bo'lib, hosildorlik, narx, moliyaviy barqarorlik va texnologik omillar bilan bog'liq risklar batafsil tahlil qilingan [2]. Jahon bankining "Managing Agricultural Production Risk" hisobotida rivojlanayotgan davlatlarda iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, narxlarning mavsumiy tebranishi hamda moliyaviy infratuzilmaning rivojlanish darajasi agrar risklarning muhim manbalari sifatida qayd etiladi [3]. Georgieva va Kirechev tomonidan Bolgariyadagi kooperativlar misolida o'tkazilgan tadqiqotda risklar tashqi (iqlim, siyosat, bozor) va ichki (boshqaruv, texnika, moliya) omillar sifatida differensiallashgan hamda ularning ta'sir mexanizmi ilmiy asosda ochib berilgan [4].

MDH olimlarining ilmiy izlanishlarida agrar risklar masalasi ko'proq amaliy boshqaruv mexanizmlari va tasniflash tamoyillari orqali yoritilgan. Kudin qishloq xo'jaligida risklarni tabiiy-iqlimiy, texnologik, bozor, moliyaviy va institutsional guruhlariga ajratgan holda, har bir guruhning kelib chiqish sabablari va xo'jalik faoliyatiga ta'sir darajasini ilmiy tahlil qilgan [5]. Gubanova, Bannikov va Losev risklarning mohiyatini, tasnifini hamda ularga qarshi sug'urta, diversifikatsiya va davlat kafolatlari kabi boshqaruv vositalarini taklif etib, agrar soha uchun ko'p darajali risk boshqaruv modelini ishlab chiqqan [6]. Voroshilova esa agrar risklarni tizimli va maxsus, ichki va tashqi, boshqariladigan va boshqarib bo'lmaydigan guruhlariga ajratgan holda, global omillar — iqlim o'zgarishi, bozor globallasuvi, texnologik modernizatsiyaning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi [7].

O'zbekiston olimlarining tadqiqotlarida esa mahalliy agrar tizimning iqlimiy, iqtisodiy va institutsional xususiyatlari hisobga olingan tarzda risklarning o'ziga xos omillari tahlil etilgan. Saidova respublika oziq-ovqat xavfsizligini o'rgangan tadqiqotida iqlim o'zgarishi, narx tebranishlari, tashqi shoklar va normativ-huquqiy muhitning o'zgaruvchanligi asosiy risk omillari sifatida ko'rsatadi [8]. Otabekov, Xalikov va Unaboyev qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalash tizimi bilan bog'liq masalalarni o'rganib, risklarni tabiiy, bozor, moliyaviy va institutsional guruhlariga ajratadi hamda agrar sug'urta tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar beradi [9]. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda BMTTDning qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'urtalash bo'yicha analitik hisobotida Orolbo'yi hududida ekologik omillar, suv tanqisligi, qurg'oqchilik hamda iqlim o'zgarishi oqibatida hosildorlikning tebranishi agrar risklarning muhim manbalari sifatida ko'rsatib o'tiladi [10].

Yuqorida ko'rib o'tilgan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligidagi risklar murakkab, ko'p omilli va o'zaro bog'langan jarayon bo'lib, ular tabiiy-iqlimiy, bozor, moliyaviy, texnologik, institutsional va boshqaruv omillarining birgalikdagi ta'siri natijasida shakllanadi. Xalqaro tadqiqotlar risklarni tasniflashning nazariy asoslarini yaratgan bo'lsa, MDH va O'zbekiston olimlarining ishlari agrar tizimning hududiy va iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda risklarning kelib chiqish sabablari va ularni boshqarish mexanizmlarini chuqur yoritmoqda. Bu esa mazkur tadqiqot mavzusining ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot qishloq xo'jaligidagi risklarning turlari, ularning kelib chiqish omillari, tasnifi hamda hosildorlikka ta'sirini baholashga qaratilgan. Metodologik yondashuv xalqaro, MDH mamlakatlari va O'zbekiston olimlari tomonidan ilgari surilgan ilmiy konsepsiyalar asosida shakllantirildi. Tadqiqot doirasida FAO (2008), Hardaker (2015), Jahon banki (2005), Georgieva (2017) kabi yetakchi manbalar hamda 40 dan ortiq ilmiy nashrlar tizimli tahlil qilinib, agrar risklarning konseptual asoslari aniqlashtirildi.



Tadqiqotning empirik qismi uchun O'zbekiston Milliy statistika qo'mitasi, Navoiy viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi, iqlim monitoringi xizmatlari va Suv resurslari agentligi tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlar (2014–2023-yillar) tanlab olindi. Ushbu ma'lumotlar asosida agrar risklarning shakllanish jarayonini o'rganish uchun ilmiy asoslangan tahliliy yondashuv qo'llandi.

Risklar tabiiy-iqlimiy, bozor, moliyaviy, texnologik, boshqaruv va institutsional guruhlariga ajratildi hamda ular bo'yicha sabab–oqibat zanjiri ishlab chiqildi. Hosildorlik va risk omillari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni baholashda korrelyatsiya tahlili, trend tahlili va ko'p omilli regressiya modeli qo'llanildi. Natijada, agrar sohada risklarni o'lchash, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash hamda ularni boshqarishning ilmiy asoslari shakllantirildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning tavakkal darajasi yuqori bo'lgan tarmoqlaridan biri bo'lib, risklarning shakllanishi ko'p omilli va murakkab tizimli jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Olib borilgan tahlillar agrar ishlab chiqarishda uchraydigan risklarni to'rt asosiy toifaga ajratish imkonini berdi: tabiiy-iqlimiy risklar, bozor risklari, moliyaviy risklar hamda texnologik va boshqaruv bilan bog'liq risklar. Har bir risk guruhi o'ziga xos kelib chiqish omillariga ega bo'lsa-da, ularga xos jarayonlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, tizim ichida bir-birining ta'sirini kuchaytirishi aniqlangan muhim ilmiy xulosalardan biridir.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, tabiiy-iqlimiy risklar qishloq xo'jaligi uchun eng katta xavf potensialiga ega risk toifasidir. Ushbu risklar qurg'oqchilik, suv tanqisligi, yog'ingarchilik rejimining o'zgarishi, ekstremal haroratlar, do'l, kuchli shamollar, tuproq degradatsiyasi, zararkunandalar hamda o'simlik kasalliklari kabi omillar ta'siri orqali shakllanadi. Ayniqsa, global iqlim o'zgarishi jarayonlari sharoitida ushbu risklarning intensivligi oshib borayotgani kuzatilmoqda.

Empirik ma'lumotlar hosildorlikning yillik o'zgaruvchanligi yuqori ekanini ko'rsatadi. Aniqlangan variatsiya koeffitsienti 12–15 foizni tashkil etib, bu tabiiy-iqlimiy omillarning hosildorlikka beqaror ta'sirini tasdiqlaydi. Bunday holat tabiiy risklarning yuqori ehtimolligi va ta'sir kuchiga ega ekanini ko'rsatib, ularni agrar sektordagi strategik xavf guruhi sifatida klassifikatsiya qilishga ilmiy asos yaratadi.

Tadqiqot natijalarini yanada vizual ifodalash maqsadida quyidagi grafiklar va jadval qishloq xo'jaligidagi risklarning intensivligini hamda g'alla hosildorligining tahliliy tendensiyasini aks ettiradi (1-rasm).



1-rasm. G'alla hosildorligining 2014–2023-yillar davridagi tendensiyasi

Izoh: Grafikda keltirilgan qiymatlar muallif tomonidan tahliliy modellash asosida shakllantirilgan.


G'alla hosildorligining 2014–2023-yillar davridagi o'zgarishlari Navoiy viloyatidagi mavjud ochiq statistik ma'lumotlar, umumiy o'rtacha ko'rsatkichlar va tahliliy rekonstruksiya asosida shakllantirildi. Ushbu yondashuv hosildorlik ko'rsatkichlarining real dinamikasini aniq aks ettirishga imkon berdi.

Bozor risklari qishloq xo'jaligi korxonalarining barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan omillar qatoriga kiradi. Narxlarning mavsumiy o'zgarishi, talabning pasayishi, raqobatning kuchayishi, logistika zanjirlaridagi uzilishlar, eksport bozorlaridagi cheklovlar bozor risklarining asosiy manbalari sifatida aniqlangan. Empirik tahlillar bozor narxlarining 10–20 foiz diapazondagi tebranishi fermer xo'jaliklari daromadlarida sezilarli farqlar yuzaga keltirishi mumkinligini tasdiqladi. Bu holat bozor kon'yunkturasini muntazam monitoring qilish va diversifikatsiya strategiyalariga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi.



Moliyaviy risklar asosan kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlari, foiz stavkalarining nisbatan yuqori darajasi, qarz yuklamasi, likvidlik bilan bog'liq muammolar, sug'urta xizmatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda valyuta kurslaridagi tebranishlar bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kreditlash darajasi hosildorlik bilan o'rtacha musbat bog'liqlikka ega bo'lsa-da, uning ta'siri iqlimiy omillar ta'siriga nisbatan ancha past ekani ma'lum bo'ldi. Sug'urta xizmatlarining qamrov darajasi pastligi agrar risklarni boshqarish mexanizmlarining yanada takomillashtirilishi zarurligini ko'rsatadi.

Texnologik va boshqaruv risklari ham agrar tizim uchun dolzarb hisoblanadi. Bu risklar texnikaning eskirganligi, servis xizmatlarining yetarli emasligi, agrotexnik tadbirlarning kechiktirilishi, resurslardan samarasiz foydalanish, kadrlar malakasining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda rejalashtirishdagi xatolar kabi omillar orqali yuzaga keladi. Mazkur risklar ayrim yillarda hosildorlikka bevosita ta'sir qilmasligi mumkin, biroq uzoq muddatda agrar samaradorlikning pasayishiga olib keluvchi ichki xavf omillari sifatida baholanadi. Shu bois, texnologik modernizatsiya, agroservis tizimini kengaytirish va malakali kadrlar tayyorlash agrar risklarni kamaytirishda muhim strategik yo'nalishlar sifatida qaraladi (2-rasm).



2-rasm. Risklar intensivligi

Izoh: Risklar xalqaro ilmiy adabiyotlar hamda muallif tomonidan amalga oshirilgan baholash asosida 9 ballik shkalada aniqlangan.

Risklarning kelib chiqish omillarini bir butun tizim sifatida ko'rib chiqish shuni ko'rsatadiki, ular o'zaro zanjirsimon tarzda bog'langan. Iqlimiy xavflar suv tanqisligiga olib keladi, suv tanqisligi hosildorlikning pasayishiga sabab bo'ladi, hosildorlikning pasayishi esa xo'jalik daromadlarining qisqarishiga olib keladi. Daromadlarning qisqarishi kreditni qaytarish imkoniyatlarini cheklab, moliyaviy risklarning kuchayishiga olib keladi. Moliyaviy barqarorlikning izdan chiqishi texnik parkining yangilanmasligini yuzaga keltirib, texnologik risklar darajasini oshiradi. Shuningdek, bozor narxlaridagi tebranishlar moliyaviy risklarni yanada kuchaytirishi, boshqaruvdagi kamchiliklar esa barcha turdagi xavflarning tez va faolroq namoyon bo'lishiga sharoit yaratishi mumkin. Bu holat risklarni kompleks tarzda boshqarish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi (1-jadval).

1-jadval. Qishloq xo'jaligi risklarining intensivligi bo'yicha tahliliy baholash

Risk turi	Ehtimollik	Ta'sir kuchi	Xavf balli (0-9)
Tabiiy-iqlimiy	Juda yuqori	Juda yuqori	9
Moliyaviy	O'rta	Yuqori	7
Bozor	Yuqori	O'rta	6
Texnologik	O'rta	O'rta	5
Boshqaruv	Yuqori	Past	4
Institutsional	O'rta	Past	3

Izoh: Risklar xalqaro ilmiy adabiyotlar hamda muallif tomonidan amalga oshirilgan baholash asosida 9 ballik shkalada aniqlangan.



Olingan natijalar qishloq xo'jaligi risklari alohida ko'rinishda emas, balki yaxlit tizim sifatida shakllanadigan murakkab hodisa ekanini tasdiqlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hosildorlikning eng sezgir omillari yog'ingarchilik va suv ta'minoti bo'lib, ular bo'yicha korrelyatsiya koeffitsientlari mos ravishda 0,71 va 0,64 ni tashkil etadi. Kreditlash va sug'urta tizimining hozirgi ta'siri nisbatan past bo'lsa-da, moliyaviy xizmatlar qamrovining kengayishi agrar tavakkalchilikni kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkinligi aniqlangan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, risklar sabab-oqibat zanjiri orqali kuchayib boradi hamda ularni samarali boshqarish kompleks yondashuvni talab etadi. Qishloq xo'jaligi risklarini kamaytirish, barqaror hosildorlikni ta'minlash va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun tizimli strategiyalar ishlab chiqish zarurligi ma'lum bo'ldi.

Tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida risklarning shakllanishi ko'p omilli jarayon ekanini ko'rsatadi. Ularning kelib chiqish mexanizmi tabiiy-iqlimiy, iqtisodiy, moliyaviy, texnologik va institutsional omillar o'zaro ta'siri bilan belgilanadi. Shuningdek, risklar alohida holda emas, balki bir-biriga bog'langan zanjir ko'rinishida namoyon bo'ladi va bu jarayonda bir bo'g'indagi beqarorlikning boshqasiga tez ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Masalan, yog'ingarchilikning yetishmasligi yoki suv tanqisligi hosildorlikning pasayishiga olib keladi; hosildorlikning pasayishi esa daromadlar qisqarishi hamda fermer xo'jaliklarining kreditni qaytarish imkoniyatlarining susayishi orqali moliyaviy risklarni kuchaytiradi. Moliyaviy barqarorlikning izdan chiqishi texnika parkini yangilash imkoniyatlarini cheklab, texnologik risklar darajasining ortishiga sabab bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligidagi eng yuqori risk darajasi tabiiy-iqlimiy toifada qayd etiladi. Ushbu risklarning yuqori ehtimollik va ta'sir koeffitsientiga ega bo'lishi ularni agrar tizimdagi strategik xavf guruhi sifatida baholashga asos yaratadi. O'zbekiston sharoitida iqlim o'zgarishi, mavsumiy qurg'oqchilik, suv ta'minotining beqarorligi va tuproq degradatsiyasi hosildorlikning o'zgaruvchanligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Hosildorlik va yog'ingarchilik o'rtasidagi korrelyatsiyaning yuqori bo'lishi (0,71) suv resurslarini boshqarish qishloq xo'jaligida tavakkalchilikni kamaytirishning eng asosiy shartlaridan biri ekanini tasdiqlaydi.

Moliyaviy risklar kreditlash qamrovining pastligi, foiz stavkalarining yuqoriligi hamda sug'urta tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kreditlash hosildorlikka ma'lum darajada ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, uning ta'sir kuchi tabiiy-iqlimiy omillarga nisbatan sezilarli darajada past. Sug'urta qamrovining pastligi esa fermerlarning risklarni boshqarish imkoniyatlarini cheklaydi va moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanishini sekinlashtiradi.

Bozor risklari ham qishloq xo'jaligi tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lib, narxlarning mavsumiy tebranishi, savdo zanjirlarining uzilishi, talabning o'zgarishi kabi omillar agrar xo'jaliklar daromadlarining barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bozor risklarining ehtimolligi yuqori bo'lsa-da, ularning ta'sir kuchi iqlimiy xavflarga nisbatan o'rtacha darajada namoyon bo'ladi. Biroq bozor risklari moliyaviy risklar bilan birlashganda, ularning umumiy ta'sir darajasi sezilarli ravishda oshishi mumkin. Bu esa bozor kon'yunkturasi va moliyaviy xizmatlar barqarorligini ta'minlashda davlat siyosati, diversifikatsiya va marketing strategiyalarining ahamiyatini kuchaytiradi.

Texnologik va boshqaruv risklari ichki omillar sifatida agrar tarmoq samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Texnika eskirganligi, zamonaviy agrotexnologiyalar yetishmasligi, agrotexnik tadbirlarning kechikishi, kadrlar malakasining yetarli darajada rivojlanmaganligi kabi omillar hosildorlikni pasaytiruvchi ichki xavf manbalari sifatida qayd etiladi. Ushbu risklar ko'pincha tizimli va uzoq muddatli xususiyatga ega bo'lib, ularni samarali boshqarish uchun institutsional islohotlar, bilim va ko'nikmalarni oshirish, shuningdek texnologik modernizatsiyani jadallashtirish zarur.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligida risklarni samarali boshqarish uchun ularni alohida emas, balki integratsiyalashgan tizim sifatida ko'rib chiqish lozim. Risklarning intensivligini aks ettiruvchi jadval va grafiklar risklar o'rtasidagi nisbat, ustuvorlik va ta'sir kuchini tahliliy baholash hamda strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi. Tahlilning eng muhim xulosasi shuki, tabiiy-iqlimiy risklar asosiy xavf guruhi sifatida saqlanib qolmoqda, biroq ularni kuchaytiruvchi moliyaviy, bozor va boshqaruv omillari bilan kompleks tahlil etilmas ekan, agrar tizimdagi real vaziyat to'liq baholanishi qiyin bo'ladi. Shu sababli, risklarni boshqarish strategiyasi tizimli, ko'p omilli va uzviy integratsiyalashgan yondashuv asosida shakllantirilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, qishloq xo'jaligi yuqori riskli tarmoq bo'lib, undagi tavakkalchiliklar tabiiy-iqlimiy, moliyaviy, bozor, texnologik va institutsional omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Risklarning ko'p omilli tuzilishi ularni alohida emas, balki tizimli va integratsiyalashgan yondashuv asosida boshqarishni talab qiladi. Natijalarga ko'ra, tabiiy-iqlimiy risklar eng kuchli ta'sirga ega bo'lib, hosildorlik va iqlimiy ko'rsatkichlar (yog'ingarchilik, suv ta'minoti) o'rtasidagi yuqori korrelyatsiya ushbu xavflarning strategik ahamiyatini tasdiqladi. Moliyaviy risklar kreditlash imkoniyatlarining cheklanganligi, foiz stavkalarining moslashuvchan emasligi va



sug'urta qamrovining pastligi bilan izohlanadi; shu bois moliyaviy xizmatlar infratuzilmasini kengaytirish va agrar sug'urtani rivojlantirish tavakkalchilikni kamaytirishda muhim omil bo'lishi mumkin.

Bozor risklari narxlarning mavsumiy tebranishi hamda talabning o'zgarishi orqali fermer xo'jaliklari daromadlarining barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va moliyaviy risklar bilan birgalikda ularning salbiy ta'sirini kuchaytiradi. Texnologik va boshqaruv risklari esa ichki tavakkalchilik sifatida sektor samaradorligiga uzoq muddatda ta'sir etadi; zamonaviy agrotexnologiyalarning yetarli emasligi, resurslardan samarasiz foydalanish va boshqaruv ko'nikmalarining pastligi agrar rivojlanishni sekinlashtiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi, bu esa texnologik modernizatsiya va bilim salohiyatini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlilning eng muhim xulosasi shundan iboratki, risklar sabab-oqibat zanjiri orqali bir-birini kuchaytiruvchi xususiyatga ega. Shu bois iqlimiy xavflarni yumshatish, moliyaviy va bozor infratuzilmasini barqaror rivojlantirish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish hamda boshqaruv salohiyatini oshirish asosida risklarni kompleks tarzda boshqarish maqsadga muvofiqdir. Risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishda suv resurslarini boshqarish siyosatini mustahkamlash, agrar sug'urta mexanizmlarini kengaytirish, kreditlashni soddalashtirish va subsidiya tizimlarini mukammallashtirish, raqamli agrotexnologiyalarni joriy etish hamda fermerlar moliyaviy savodxonligini oshirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilanadi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot qishloq xo'jaligidagi risklarning nazariy modelini, ularning kelib chiqish omillari hamda ta'sir mexanizmini aniqlashga xizmat qiladi va agrar sektor uchun ilmiy asoslangan risklarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kahan D. Managing Risk in Farming. Farm Management Extension Guide 3. – Rome: FAO, 2008. – 119 p.
2. Hardaker J. B., Lien G., Anderson J. R., Huirne R. B. M. Coping with Risk in Agriculture: Applied Decision Analysis. – 3rd ed. – Wallingford: CABI Publishing, 2015. – 288 p.
3. World Bank. Managing Agricultural Production Risk: Innovations in Developing Countries. – Washington, D.C.: Agriculture and Rural Development Dept., World Bank, 2005. – 129 p.
4. Georgieva T., Kirechev D. Research on the Sources of Risk for Agricultural Cooperatives in Northeastern Bulgaria. // Trakia Journal of Sciences. – 2017. – Vol. 15, Suppl. 1. – P. 206–215.
5. Кудин В. В. Проблема классификации рисков в сельском хозяйстве // Сельское хозяйство – проблемы и перспективы. – Гродно: Министерство сельского хозяйства и продовольствия РБ; ГГАУ, 2016. – Т. 34: Экономика. – С. 146–153.
6. Губанова Е. В., Банников С. А., Лосев А. Н. Управление рисками в сельскохозяйственном производстве: сущность, классификация и инструменты // Вестник НГИЭИ. – 2024. – № 3(154). – С. 76–86.
7. Ворошилова И. В. Теоретические основы исследования аграрных рисков // Экономика и бизнес. – 2013. – № 5. – С. 112–118.
8. Saidova D. N. Main Risks and Factors of Food Security in Uzbekistan. // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Vol. 3, No. 6.
9. Otabekov Sh. X., Xalikov B. Sh., Unaboyev Sh. Sh. Qishloq xo'jaligidagi risklarni sug'urtalashning dolzarb masalalari haqida. – Zenodo, 2025. – DOI: 10.5281/zenodo.15231540.
10. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi; BMT Taraqqiyot Dasturi; Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiy tahlil markazi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'urtalash tizimining tahlili. – Nukus: BMTTD, 2024. – 86 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>